XALQ DEPUTATLARI MIROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr III-18-135-14-199-K/25 Mirobod tumani

Mirobod tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari haqidagi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03/41-4-28285-son xati asosida, "Mirobod tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorini belgilash to'g'risida"gi Mirobod tuman Soliq inspeksiyasining takliflari asosida xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 17-dekabrdagi 03/41-4-28285-sonli xatida berilgan "suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to'g'risida"gi takliflari inobatga olinsin.

2. Mirobod tuman Soliq inspeksiyasining 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar yuzasidan kiritgan taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mirobod tuman Soliq inspeksiyasi hamda Kengash deputatlari va doimiy komissiyalari tomonidan bildirilgan takliflar asosida tayyorlangan “Mirobod tumanida 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Kengash qarori “regulation.gov.uz” saytida ID-111080-raqami bilan 15 kun muddatga jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilganligi inobatga olinsin.

4. Mirobod tumanida 2026-yilda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari qonunchilikda belgilangan miqdorlarda, quyidagicha;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Mirobod tumani soliq inspeksiyasi (X.Inomov)ga:

2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to’g’risidagi qaror ijrosini sifatli darajada ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

Mirobod tuman soliq inspeksiyasi budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda tumanning iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan, xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borsin.

6. Mirobod tuman hokimligi va tuman soliq inspeksiyasi tomonidan mazkur qarorning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi ta’minlansin.

7. Mazkur qaror 2026-yilning 1-yanvar sanasidan kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan, tuman soliq inspeksiyasi hamda jismoniy yoki yuridik shaxslar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar o‘rnatilgan tartibda sud orqali hal qilinadi.

9. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Mirobod tumanida 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga va noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar to‘g‘risida”gi III-4-029-14-199-K/24-sonli qarori 2026-yil 1-yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mamanazarov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SAYFUTDINOV ANVAR NAZAROVICH**

Xalq deputatlari Mirobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-18-135-14-199-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Sohalar	Yer usti suv manbalari			Yer osti suv manbalari		
		2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	**Taklif etilayotgan koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)**	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*	**Taklif etilayotgan koeffitsent (0,7 dan 1,5 gacha)**	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun)*
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	749,0	1,3	973,7	910,0	1,3	1 183,0
2	Elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	118,0	1,3	153,4	144,0	1,3	187,2
3	Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalaniladigan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	107,0	1,3	139,1	107,0	1,3	139,1

4	Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi	16 050,0	1,3	20 865,0	16 050,0	1,3	20 865,0
5	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi	40 660,0	1,3	52 858,0	40 660,0	1,3	52 858,0

Xalq deputatlari Mirobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
III-18-135-14-199-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Noruda qurilish materiallari nomi	2026-yil uchun soliq stavkasi *(1 kub metr uchun so‘mda)*	Taklif etilayotgan koeffitsent (1,3 gacha)	Soliq stavkasi *(1 kub metr uchun so‘mda)*
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	6 591,0	1,3	8 568,3
2	Sement ishlab chiqarishga mo`ljallangan ohaktosh	7 062,0	1,3	9 180,6
3	Qum-shag‘al aralashmasi *(qum-shag‘alning karyerdagi realizatsiya minimal miqdori bir metr kubi uchun 20 ming so‘m)*	5 350,0	1,3	6 955,0
4	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar, qurilish qumi, qumtoshlar	4 943,0	1,3	6 425,9
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	17 066,0	1,3	22 185,8
6	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	10 700,0	1,3	13 910
7	Marmar	21 400,0	1,3	27 820,0
8	Granitlar	32 100,0	1,3	41 730,0